

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 132 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
S.S. Ismailov	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir	45
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish.....	49
Idirisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini.....	53
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран	69
Буранова Лола Вахобовна	
Мамлакатimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
Babamatov Tolib Xakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций.....	116
Умида Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	



MAXSUS KIIYIMLAR TIKISHDA FOYDALANILADIGAN GAZLAMALAR TAHLILI

ORCID: 0009-0005-6567-8140

Sayidova Maftuna Hamroqul qizi

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti doktranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maxsus kiyimlarni tikishda qo'llaniladigan gazlamalarning to'la tarkiblari va maxsus kiyimlarni ishlab chiqarish haqida to'liq ma'lumotlar berilgan. Maxsus kiyimlarni ulardan foydalanishga qarab ishchining bajaradigan faoliyati va ish jarayonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sarja, paxta tolali brezent, fas, TiSi, sattori, greta, kondura, panama stretch, poliyester.

Abstract: In this article, the full composition of gas used in sewing special clothes and full information about the production of special clothes are given. Information about the activities and work processes of the worker, depending on the use of special clothes, is presented.

Key words: sarja, cotton tarpaulin, fas, tisi, sattori, greta, condora, panama stretch, polyester.

Аннотация: В данной статье приведен полный состав газа, используемого при пошиве специальной одежды, и полная информация о производстве специальной одежды. Представлены сведения о деятельности и трудовых процессах работника в зависимости от использования специальной одежды.

Ключевые слова: саржа, хлопковый брезент, фас, тиси, саттори, грета, кондора, панама-стретч, полиэстер.

KIRISH

So'nggi yillarda respublikamizda sanoatning barcha jabhalari oldinga siljib bormoqda. Har bir korxona yoki tashkilot, xoh yengil, xoh og'ir sanoat bo'lsin, o'ziga xos kiyim-kechak va unga qo'yiladigan talablarga ega. Maxsus kiyim-kechak ishlab chiqarish uchun mehnat sharoitlari va texnologik jarayonni hisobga olgan holda barcha sharoitlar gazlama havo o'tkazuvchanligi, mustahkamlik va boshqa ko'plab jihatlarini inobatga olgan tarzda tanlanadi. Maxsus ish kiyimlari og'ir ekologik sharoitlardan ishonchli himoya qilish uchun mo'ljallangan maxsus matolardan tayyorlanadi. Maxsus kiyim barcha sohalarida zarur: oziq-ovqat sanoati, metallurgiya, neftni qayta ishlash sanoati, qurilish, tibbiyot va boshqalar. Bundan tashqari, mehmonxonalar, savdo markazlari va boshqa jamoat joylarida ham xizmat ko'rsatuvchi xodimlar maxsus kiyim kiyishlari shart.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy mutaxassislardan Q.Q. Nabiyev, N.J. Yaqubov, K.A. Toshtemirov, U.N. Azamovlarning ilmiy ishlarida turli xil gazlamalar haqida fikr yuritilgan, foydalanish bo'yicha turlarga bo'lingan va maxsus kiyimlarni tikishda tavsiya etiladigan gazlamalar sanab o'tilgan.

To'qimachilik korxonalari faoliyatida maxsus kiyimlarni tikishda foydalaniladigan gazlamalar xususidagi yondashuvlarni o'rganish bo'yicha xorijlik olimlardan D. Bell, J.J. Lamben, Dj. Rayt, R. Reddik, M. Xeyg, F. Kotler va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Biroq, yuqorida qayd etilgan olimlarning ilmiy ishlarida yengil sanoat korxonalarida alohida gazlamalardan foydalanishni takomillashtirish masalasi yetarli tadqiq etilmagan. Shu bois yengil sanoati korxonalarida qator materiallardan foydalanishni takomillashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqot davomida analiz va sintez, analitik tahlil, qiyosiy tahlil usullaridan samarali foydalanilgan. Tadqiqotimizda qiyosiy tahlil, analitik tahlil yo'nalishlari orqali muammoni chuqurroq o'rganishga harakat qilingan. Muammoni yechimiga olib boruvchi strategik yo'nalishlar belgilangan. Tadqiqotning obyekti sifatida xizmat ko'rsatish sohasi tanlab olingan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Maxsus ish kiyimlari uchun matolarning vazifalari nimadan iborat va u qanday vazifalarni bajaradi? Avvalo maxsus kiyim qulay va xavfsiz ish sharoitlarini ta'minlashi kerak, himoya funksiyalari turli sohalarida ishlash misoli yordamida farqlanadi. Har qanday ish kiyimi ikkita talabga javob berishi kerak: qulaylik va yuqori darajadagi himoya vazifasini bajarishi kerak.

Har bir inson kun davomida o'rtacha 6-8 soat va undan ortiq ish vaqt oralig'ida mehnat faoliyatida maxsus kiyim kiyadi. Shuning uchun ish kiyimlarini uzoq vaqt kiyish mumkin va inson tanasi bilan doimiy aloqada bo'ladi, kiyim tikishda ishlatiladigan matolar inson tanasiga juda mos kelishi juda muhim omillardandir. Chunki har bir ishchi ish jarayoniga mansub va qulay kiyimda ishlashni xohlaydi, bu foydali ish koeffitsiyentiga ham ta'sir etadi. Maxsus kiyimlar uchun gazlama tanlashda, asosan, himoya vositalari va yuqoridagi xususiyatlar hisobga olinishi, balki tikuvchilik ishlab chiqarishda matolarni tikish imkoniyati ham, uni ishlatish uning kiyish muddati va qulayligi va gigiyenik xususiyatlari nazarda tutiladi. Maxsus kiyimlarni tikish uchun ishlatiladigan matolar kiyimda ham qo'llaniladi, u himoya darajasi bilan uzviy bog'liq deb hisoblanadi va bir qator guruhlariga bo'linadi:

- metallurglar uchun maxsus kiyim matolari (1-guruh)
- neft konlari ishchilari uchun maxsus kiyim matolari (2-guruh)
- payvandchilar uchun maxsus kiyim matolari (3-guruh)
- umumiy ishlab chiqarish sohalarida ishchilar uchun maxsus kiyim matolar (4-guruh) kabi turlarga

bo'linadi[1].

Ish kiyimlari uchun gazlamalarning vazifalari, ularning kategoriyalari va asosiy xususiyatlari mavjud bo'lib, tikish uchun ishlatiladigan material quyidagi funksional talablarga javob berishi kerak:

1. Dermatologik standartlarga muvofiqligi.
2. Tayyor mahsulotlarni kiyganda qulaylik.
3. Turli xil tashqi omillarning zararli ta'siridan himoya qilish.
4. Foydalanuvchilarning o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish qobiliyati.
5. Estetik ko'rinish.

Turli faoliyat turlarida ishchilar uchun ish kiyimlari uchun eng yaxshi materialni to'g'ri tanlash uchun to'qimachilikning asosiy toifalarining xususiyatlarini bilish zarur.

Zamonaviy to'qimachilik sanoatida an'anaviy texnologiyalar bilan bir qatorda innovatsion usullar va materiallar qo'llaniladi. To'qimachilik turli mezonlarga ko'ra tasniflanishi mumkin:

- *xomashyo* – zig'ir, paxta, jun, ipak, bambuk, sintetik tolalar, sun'iy tolalar;
- *to'quv* – sarja, polotno, rogoshka, reps, satin;
- *maxsus xususiyatlar* – yong'inga chidamlilik, namlikka chidamlilik, kimyoviy qarshilik;

Muayyan turdagi maxsus ish kiyimlari qaysi matodan tayyorlanishi soha vakili qanday vazifani bajarishi, ish joyi muhiti va haroratini inobatga olgan holda gazlama tanlanadi. Masalan, tibbiyot xodimlari kimyoviy vositalarga chidamli va tezda kir tashlashi, ofitsiantlar va sotuvchilarning kostyumi turli xil kirlanish, yog' va rangni singdirmaydigan takroriy yuvishga bardosh berishi kerak.

Oziq-ovqat sanoati xodimlari uchun kiyim-kechakning yog' va namlikni yo'qotish xususiyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega, ma'muriy xodimlar uchun kiyim-kechak ish kuni davomida tashqi ko'rinishga ega bo'lishi kerak, bunda to'qimachilikning estetik fazilatlari birinchi o'ringa chiqadi.

Maxsus kiyimda qo'llaniladigan matolar barcha talablarga javob berishi kerak, mexanik ta'sirlarga chidamli, suyuqlikni singdiruvchi, havo o'tazuvchanlik yoki havo o'tkazmasligi, issiqlikni saqlab turishi kerak, bu, albatta, kasbiy ehtiyojdan va soha vakilining bajaradigan ishiga bog'liq. Masalan, o't o'chiruvchilar maxsus kiyimlarini olsak, ularning ish jarayonida olovga chidamli gazlamalardan foydalaniladi, ammo gazlamaning egilishi, siqilish deformatsiyalari ta'sirida uning ish jarayonida noqulaylik tug'dirgani bilan insonni issiq haroratdan, kuyishdan asraydi. Maxsus kiyim-kechak matolari jahon standarti talablari, sifat ko'rsatkichlari, to'g'ridanto'g'ri normativ-huquqiy hujjatlarga ega bo'lgan materiallar, xomashyo turlari bo'lishi kerak.

Maxsus ish kiyimlarini tikish uchun mato bardoshli va yemirilishga chidamli, ko'plab yuvishlarga va umur-boqiyiligi yuqori bo'lishi kerak. Chunki ish kiyimlari o'zining estetik ko'rinishini ham yo'qotmasligi, takroriy yuvishga bardosh berishi kerak va tibbiy kiyimlar bir nechta sanitariya protseduralaridan o'tadi, shu jumladan, turli mikroorganizmlardan tozalash maqsadida sterilizatsiyasi jarayonlaridan o'tishi mumkin. Sifatli gazlamalardan tayyorlangan maxsus ish kostyumlari yuqorida aytilgan jarayonlariga qaramay o'z shaklini yaxshi ushlab turishi, kichraymasligi, quyosh nuriga chidamli bo'lishi, ishqalanish va kirlanishga chidamlilik xususiyatlari juda muhim omil hisoblanadi. Shunga asoslanib, ochiq havoda ishlovchi soha vakilining vazifalaridan kelib chiqib, ish sharoitlariga qarab gazlamalar tanlanadi.

Maxsus ish kiyimlari uchun matoga qo'yiladigan talablar: ishchining ergonomik harakatini cheklamasligi, gigroskopiklik, metall uchqunlari, ifloslanish, mexanik shikastlanishdan himoya qilishi, sanitariya-gigiyena talablari va mehnat sharoitlariga javob berishi kerak [2].



Maxsus kiyim matosi yuqorida aytilgandek, jahon standarti talablariga, sifat ko'rsatkichlariga javob berishi, materialning normativ-huquqiy hujjatlariga bevosita egalik xomashyo turlari bo'lishi kerak. Tikish uchun tabiiy, aralash va sun'iy tolalardan to'qilgan matolardan tikiladi, yuqorida tavsiflanganidek, har bir soha vakilining ish jarayonidan kelib chiqqan holda gazlama qalinligi va havo o'tkazuvchanlik, fizik-kimyoviy xususiyatlarini hisobga olgan holda muhitiga qarab tanlanadi.

To'qimachilik tolalari tabiiy va kimyoviy guruhlariga bo'linadi. Har xil turdagi xomashyolardan tayyorlangan matolarning afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Masalan, hayvon (jun, ipak) va o'simlik (paxta, zig'ir) kelib chiqishi tabiiy tolalardir, ular tabiiy xomashyodan olinganligi uchun hech qanday allergik reaksiyalar paydo bo'lmaydi va elektrlashmaydi, havo o'tkazuvchanlik juda yuqori bo'ladi. Muhim kamchiliklar ularni qo'llash doirasini toraytiradi:

- paxta yuvilganda juda qisqaradi, g'ijimlanadi, kirlanish darajasi yuqori va deformatsiyalanadi;
- zig'ir matosi juda g'ijimlanadi va hosil bo'lgan burmalarni tekislash juda qiyin;
- junni har mavsumda qo'llab bo'lmaydi, deformatsiyalanadi va eskiradi;
- ipak yuvilganda qisqaradi, eng kichik ta'sirdan g'ijimlanish va kirlanishga moyil dog'lar paydo bo'ladi.

Shuning uchun ham gazlamalarga sun'iy va sintetik tolalarni (viskoz, polyester, akril, bambuk) kiritish orqali yuqoridagi salbiy xususiyatlarni kamaytirish mumkin.

Tabiiy matolar – tabiiy tolalar organik moddalardan iborat bo'lib, ularning asosiy afzalligi – “nafas olish” va terni singdirish qobiliyati juda yuqori, ular tikishda va paxta matolarini ishlab chiqarishning har bir guruhida qo'llaniladi: ko'ylak, shim, bluzkalar va boshqalar uchun kiyim tikishda keng qo'llaniladi. Yuqori zichlikdagi to'quvli paxta matosi (260 g/m²) jismoniy faollikni oshirish bilan bog'liq ishlar uchun ishlatiladi. Kamchiligi shundaki, ulardan tayyorlangan maxsus kiyim juda bardoshli emas, g'ijimlanish va qisqarish (torayish) holatlari bo'ladi.

Sarja – mexanik shikastlanishdan himoya qiladi, chirishga chidamli va shaklini mukammal saqlaydi.

Paxta tolali brezent – metallurklar uchun payvandlash kostyumlari va kiyim-kechak tayyorlash uchun ishlatiladi. Tuval olovga chidamli vosita va kislotaga chidamlilikni oshirish bilan ishlov beriladi, bu uni nafaqat yuqori haroratga, balki kimyoviy reagentlarga ham chidamli qiladi.

Fas – mato denimga o'xshaydi, lekin ancha zichroq va bardoshlidir. Mato antistatik xususiyatlarga ega va changning eng yuqori darajasiga mos keladi. Ushbu matodan tikilgan kiyimlar tog'-kon sanoati, yog'ochni qayta ishlash va sement zavodlari uchun ajoyib imkoniyatdir. [3]

Aralash tolali matolar – tabiiy tolalar va sun'iy tolalar qo'shilmasidan iborat bo'ladi, bunda to'qilgan to'qima juda sifatli estetik jihatdan ko'rinishli va gazlama chidamlilik darajasi bir qancha yuqori bo'ladi. Ularning yuqori sifatli (kuch, estetika va boshqalar), shuningdek, arzon narxlar tufayli ular ish kostyumlarini ishlab chiqarish uchun boshqa materiallarga qaraganda tez-tez ishlatiladi. Ko'pincha, ish kiyimlari uchun aralash mato 30-35% paxta va 65-70% poliyesterdan iborat. Bu nisbat yaxshi, chunki u paxtaning tabiiyligini his qilish imkonini beradi va barcha turdagi jarayonlar bilan ishlov berish uchun idealdir.

TiSi – tarkibida 35% paxta va 65% poliyester mavjud, zichligi (120 g/m²).

Sattori – paxta 65% va poliyester 35%, (200 g/m²) bo'lib, uy-joy kommunal xo'jaligi, qurilish va yo'l ishchilari uchun kiyim-kechak tayyorlanadi.

Greta – tarkibida paxta 53% va poliyester 47%, (220 g/m²) mavjud. Matoning ichki qismi tabiiy tolalardan, tashqi qoplamasi sintetik tolalardan qilingan.

Diorit – tarkibi paxta 55% va poliyester 45%, (240 g/m²). Yomg'irda mato namlanmaydi.

Kordura – tarkibida poliamid 90%, paxta 10%, (270 g/m²). Materiallar suv o'tkazmaydigan xususiyatlarga ega va kimyoviy moddalarga juda chidamli. Matodan, asosan, ryukzaklar, poyabzallar, sport anjomlari va kiyim-kechak buyumlari tikishda foydalaniladi.

Panama Stretch – tarkibida paxta 60%, poliyester 40%, (270 g/m²) bor. Bardoshli “nafas oladigan”, shaklini yaxshi ushlab turadi va cho'zilmaydi. Mato tanadan namlikni tezda olib tashlaydi, shuning uchun u ko'pincha sport kiyimlarini tikish uchun ishlatiladi. [4].

Sun'iy matolar. Sellyulozadan va tabiiy tolalarni qayta ishlash chiqindilaridan – viskoza, modal, asetat ipaklaridan tayyorlanadi. Ular havo va namlikning yaxshi o'tishiga imkon beradi, teginish uchun yoqimli, burishmaydi va ishqalanishga bardoshlidir. Kamchiligi sirtida granulalar hosil bo'lishidir. Uglevodorodlarni kimyoviy qayta ishlash natijasida olingan sintetik tolalar yuqori ishqalanishga bardoshliligi, mustahkamligi, kam qisqarishi va burishishi bilan ajralib turadi.

Sintetik matolar. Ular viskoza, asetat, triasetat tolalaridan olinadi va ularning turli kombinatsiyalari ham bo'lishi mumkin. Ushbu material diagonal, twill va tekis ipli to'quvlarga ega bo'lishi mumkin. U elektrlashtirilgan va ishqalanishga beqaror bo'lish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Ish kiyimlari uchun ushbu toifadagi to'qimachilikdan faqat bittasi ishlatilishi mumkin bo'lgan kasblar mavjud. Masalan, yuqori haroratlar, payvandlash yoki isitiladigan yuzalar bilan shug'ullanadigan mutaxassislar uchun paxta matolarini ish kiyimlari yoki paxta va zig'ir kombinatsiyasi uchun ishlatish tavsiya etiladi. Sababi bu ishchi



xodimlar yuqoridagi sharoitlarda sun'iy va aralash materiallar yonib ketishi yoki erishi mumkin, bu xavfsizlik qoidalarini bilan ruxsat etilmaydi.[5].

Jadval-1

№	Matoning nomi	Mato tarkibi	Mato zichligi, g/sq. m
1	Temp	paxta - 49% poliyester - 51%	220
2	Sizu	paxta - 23% poliyester - 77%	139
3	Calico	paxta - 100%	142
4	Twill 38 YUD	paxta - 100%	260
5	Oksford	poliyester - 100%	125
6	Sharq	poliyester - 100%	180
7	Gabardin	poliyester - 100%	180
8	TiSi	paxta - 23% poliyester - 77%	120
9	Duspa 240T	poliyester - 100%	100
10	Bog'langan	poliyester - 100%	160
11	Shamol o'tkazmaydigan (to'liqinli)	poliyester - 100%	80
12	Magpie	viskoza - 35% poliyester -65%	160-170
13	Astar 190T	poliyester - 100%	60-65
14	Indura	paxta - 100%	305
15	Astakon	poliyester - 100%	110
16	Foremen	poliyester - 67% paxta - 33%	260
17	Poliamid	poliyester - 100%	300
18	Fas	paxta - 100%	360
19	Klopman	poliyester - 65% paxta - 35%	245
20	Relyef mato Pique	paxta - 100%	180

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida ko'rsatilgan gazlamalar har birining tarkibi va fizik-kimyoviy xususiyatiga qarab qo'llanilib kelmoqda. Yengil sanoat iqtisodiy o'sishning eng muhim vazifasi bo'lib, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va ilg'or texnologiyalarni (jumladan, yangi materiallar, nanotexnologiyalari va nanomateriallar texnologiyalarini) joriy etish orqali uning moddiy-texnik bazasining raqobatdoshlik darajasini oshirishdan iborat. Bu maqsad qilingan barcha izlanishlar va tadqiqotlar barcha soha vakillari uchun yangilik bo'ladi, texnologiya asrida yangi turdagi yuqori raqobatbardosh kiyimlarni yaratish, ularning ishonchligini ta'minlagan holda ratsional konstruksiyani yaratish, optimal texnologik parametrlarini ishlab chiqish, maxsus kiyim turlarini ko'paytirish va sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tilaboldiyeva M.A., Maqsudov N.B. Maxsus ish kiyimlari uchun gazlamalar tahlili. Cyberleninka.ru
2. O'zbekiston Respublikasining 22.09.2016-yildagi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'RBQ-410-son Qonuni. lex.uz/docs/-3031427
3. Azamov U.N., Djo'rayev B.E., Eshomqulova M.A "Respublikamizda ipak matolarini ishlab chiqarilishi va foydalanilayotgan xomashyolar" To'qimachilik muammolari №4/2017, 45-b.
4. Хошимова М. & Хожиев А. (2021). Выбор ткани для женской кофты. Universum: технические науки, (4-2 (85)), 92-95.
5. <https://swg.style/blog-ru>
6. <https://swg.style/blog-ru>
7. <https://y-ivanycha.ru>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

